Ro‘zmetov Azizbek Tangirberganovich (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Sport o‘yinlari” kafedrasi dotsenti)

VOLEYBOLDA HIMOYAVIY TEXNIK-TAKTIK HARAKATLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada voleybolda himoyaviy texnik-taktik harakatlar samaradorligini oshirish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda o‘yinga kiritilgan to‘pni qabul qilish, hujum zarbalariga qarshi himoya, to‘siq qo‘yish hamda yakka, guruh va jamoaviy himoya harakatlarini tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari yoritb berilgan.*

Kalit so‘zlar: *voleybol, himoyaviy texnik-taktik harakatlar, to‘p qabul qilish, to‘siq qo‘yish, himoya tizimlari, jamoaviy va guruhli himoya, yakka taktika, joylashuv, hujum zarbasini qabul qilish, o‘yin samaradorligi.*

Рузметов Азизбек Тангирберганович (доцент кафедры «Спортивных игр», Ургенчский государственный университет имени Абу Райхана Беруни)

МЕТОДЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЗАЩИТНЫХ ТЕХНИКО-ТАКТИЧЕСКИХ ДЕЙСТВИЙ В ВОЛЕЙБОЛЕ

Аннотация. *В данной статье анализируются вопросы повышения эффективности защитных технико-тактических действий в волейболе. В исследовании раскрываются теоретические и практические аспекты организации приема подачи, защиты против атакующих ударов, постановки блока, а также выполнения индивидуальных, групповых и командных защитных действий.*

Ключевые слова: *волейбол, защитные технико-тактические действия, приём мяча, блокирование, системы защиты, командная и групповая защита, индивидуальная тактика, расположение игроков на площадке, приём атакующего удара, эффективность игровой деятельности.*

Ruzmetov Azizbek Tangirberganovich (Associate professor of the department of Sports Games, Urgench state university named after Abu Rayhan Beruni)

METHODS FOR IMPROVING THE EFFICIENCY OF DEFENSIVE TECHNICAL AND TACTICAL ACTIONS IN VOLLEYBALL

Annotation. *This article analyzes the issues of improving the effectiveness of defensive technical and tactical actions in volleyball. The study reveals the theoretical and practical aspects of organizing serve reception, defending against attacking hits, blocking, as well as the implementation of individual, group, and team defensive actions.*

Keywords: *volleyball, defensive technical and tactical actions, ball reception, blocking, defensive systems, team and group defense, individual tactics, players ' court positioning, reception of attacking hits, game performance efficiency.*

Kirish. Voleybol jamoalarining nufuzli musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etishi, asosan, ularning yuqori darajadagi jismoniy, texnik-taktik va psixologik tayyorgarligiga, ayniqsa taktik tayyorgarlik darajasiga ko‘proq bog‘liq bo‘ladi. Zamonaviy sport amaliyotida yuqori sport natijalariga erishish texnik-taktik usullarning samarali qo‘llanilishi bilan bevosita bog‘liq hisoblanadi. Shu bois yuqori malakali sportchilarni tayyorlash jarayonida mashg‘ulotlarda texnik-taktik harakatlarni o‘rgatish va takomillashtirishga alohida e’tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Sportda mashqni (texnik-taktik usullarni), ko‘p marotaba takrorlash va amaliyotda muntazam qo‘llash ularni yanada takomillashtirishga olib keladi. Shuningdek, o‘yin usullarini o‘rgatish jarayonida sportchilarning texnik va taktik ko‘nikmalarini izchil va uzluksiz shakllanti-rib borish yuqori sport natijalariga erishishda muhim omil hisoblanadi.

Voleybol bo‘yicha Jahon va Osiyo chempionatlarini kuzatish va tahlil qilish natijalari shuni ko‘rsatadiki, Yevropa, Rossiya jamoalari nafaqat yuqori darajadagi jismoniy tayyorgarligi, balki g‘alabani ta’minlashda kombinatsion o‘yinlarning samarali qo‘llanilishi bilan ham ajralib turadi. Hujumchilarning kombinatsion harakatlarini samarali amalga oshirish har bir o‘yinchi hamda jamoaning o‘zaro muvofiqlashtirilgan taktik harakatlarini talab qiladi. Bu jarayon ko‘p jihatdan jamoaning boshqaruvchisi, hisoblangan to‘p qabul qiluvchi va uzatuvchi o‘yinchilarning mahorati bilan bog‘liq.

Shu bois voleybolda o‘yinga kiritilgan to‘plarni qabul qilish va uzatish bo‘yicha yuqori malakali o‘yinchilarni tayyorlash sport tayyorgarligi tizimining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi va u alohida qobiliyat hamda maxsus tayyorgarlikni talab etadi. Mazkur voleybolchilar tezkorlik bilan aniq to‘p uzatish texnikasiga ega bo‘lishi, o‘yin vaziyatlarini tez va to‘g‘ri baholay olishi, maydondagi turli taktik holatlardan samarali foydalanishi, shuningdek, o‘yinni boshqarish va jamoaning taktik faoliyatini tashkil eta olish qobiliyatiga ega bo‘lishi talab etiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. L.R.Ayrapetyans va A.A.Po‘latovlarning ta’kidlashicha, birinchi to‘pni qabul qilish va uzatish jarayonida ayrim texnik cheklovlarning amalda kam qo‘llanilishi o‘rta-

cha shiddatda kiritilgan yoki zarba berilgan to‘plarni yuqoridan ikki qo‘l bilan qabul qilish va uzatish usullarining keng tarqalishiga olib kelgan. Mualliflarning ma’lumotlariga ko‘ra, avvalgi yillarda himoya zonalaridan tashkil etilgan hujum zarbalari ulushi 9,3–20,1 foizdan oshmagan.


Zamonaviy voleybolda esa himoya zonalardan amalga oshiriladigan hujum zarbalari ulushi 20,1–34,9%gacha ortgani kuzatilgan. Himoya zonalaridan bajarilgan bunday zarbalarni to‘siq (blok) yordamida bartaraf etish ancha murakkab hisoblanadi. Shu bois hozirgi voleybolda hujum harakatlarining samaradorligi himoyaviy harakatlarning imkoniyatlaridan ustunlik qilayotganligi kuzatilmoqda.

Y.N.Kleshev va Y.D.Jeleznyaklarning ta’kidlashicha, zamonaviy voleybol rivojlanishining muhim yo‘nalishlaridan biri yakka, guruh va jamoa bo‘lib bajariladigan himoya harakatlarining sezilarli darajada faollashuvi bilan tavsiflanadi. Avvalo, bu holat o‘yinga kiritilgan to‘pni qabul qilish bilan bog‘liq himoya harakatlarining amaldagi o‘yin qoidalariga nisbatan ancha erkinlashtirilgani bilan izohlanadi.


Tadqiqot metodologiyasi. Himoyviy taktik harakatlarning asosiy maqsadi raqib jamoasining hujum harakatlarini bartaraf etish hamda ularga samarali qarshilik ko‘rsatishdan iborat. Himoyadagi taktik harakatlar jamoaviy, guruh va yakka tartibdagi harakatlarni o‘z ichiga oladi. Jamoaviy taktik harakatlar o‘yinda jamoaning himoyadagi faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, ular, asosan, uchta asosiy vaziyat orqali namoyon bo‘ladi: o‘yinga kiritilgan to‘pni qabul qilish, hujum zarbasini yoki to‘siqdan qaytgan to‘pni qabul qilish hamda hujum qilayotgan o‘yinchini himoyalash.

Jamoaviy himoya harakatlarining mohiyati bir qator omillar bilan belgilanadi. Jumladan, raqib jamoasining hujum harakatlari xususiyati, o‘yinchilarning individual o‘yin mahorati darajasi, hamda o‘yin vaziyatlaridan kelib chiqib keyingi harakatlarni to‘g‘ri tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi [1;4-b.].

Zamonaviy voleybol o‘yinida jamoa o‘zini himoya taktikasini maydon burchagi oldinga (1^a-rasm) va burchagi orqaga (1^b-rasm) tizimi asosida tashkil qilishi himoya taktik harakatlariga mos keladi.




1^a-rasm




1^b-rasm

Yuqorida aytib o‘tilgan omillar va o‘yin vaziyatidan kelib chiqqan holda, jamoaga ma’qul bo‘lgan himoya taktikasini qo‘llashi mumkin bo‘ladi. Quyida ushbu taktik usullarni va uning variantlarini ko‘rib chiqamiz.

Musobaqa jarayonida o‘yinga kiritilgan to‘pni qabul qilishda o‘yinchilarning maydon bo‘ylab joylashishi asosan ikki variantda bo‘ladi: birinchisi chiziqli va ikkinchisi pog‘onalar bo‘yicha amalga oshiriladi. Chiziqli variantdan (2^a-rasm) barcha o‘yinchilar to‘pni qabul qilish malakasiga ega bo‘lganda va hujumda murakkab bo‘lmagan kombinatsiyalarni uyushtirish rejalashtirilganda foydalaniladi.



2^a-rasm



2^b-rasm

Ushbu variantda o‘yinchilar maydon bo‘ylab bir tekisda joylashadilar. Bunda raqib jamoaning to‘p uzatishidagi quyida keltirilgan taktik xususiyatlarni hisobga olish lozim:

a) maydonda joy tanlash (to‘rdan qancha masofada joylashish);

b) raqib tomonidan turli usulda o‘yinga to‘p kiritiish ehtimolligi;

d) ikki o‘yinchi orasiga uzatish ehtimolligi;


e) to‘r yoniga chiqayotgan uzatuvchiga to‘pni yo‘llash ehtimoli.

Zamonaviy voleybol amaliyotida o‘yinchilarning hozirgi kunda maydonda pog‘ona bo‘ylab joylashish taktikasi keng qo‘llanilmoqda. Bunday joylashuv tizimi o‘yinga kiritilgan to‘pni malakali voleybolchilar tomonidan samarali qabul qilish hamda keyingi hujum harakatlarini yuqori darajada tashkil etish uchun qulay sharoit yaratadi [2,3,5].

Agarda 3-zonada turgan o‘yinchi to‘pni yaxshi qabul qilish, 4-zonadagi o‘yinchi esa yaxshi hujum qilish mahoratiga ega bo‘lmasa, 2^b-rasmda keltirilgan joylashish sxemasidan foydalanishi mumkin bo‘ladi. 3-zonada joylashgan o‘yinchi to‘pni yaxshi qabul qila oladigan bo‘lsa, u maydonning orqarog‘iga surilib turishi kerak (6-zonadagi o‘yinchidan o‘tib ketishi mumkin emas).

To‘p uzatuvchi o‘yinchining maydonning 5-zonasidan chiqish vaqtidagi jamoa joylashuvi 2^b-rasmda berilgan. Bunday joylashuv birmuncha qiyin bo‘lishi mumkin, lekin bu usuldan jamoalar, tez-tez foydalanib turadi. Bu usuldan jamoa 5+1 tizimida o‘yin olib borganida foydalanishi, ayniqsa, samara berishi mumkin.

O‘yin sharoitida hujumkor zarba to‘plarini qabul qilishda himoyani tashkil etishning asosan uchta variantidan foydalaniladi. Bular chiziq bo‘ylab, oldingi pog‘onali va orqa pog‘onali joylashish tizimidagn iborat. Chiziq bo‘ylab himoya tizimida oldingi qator o‘yinchilaridan biri to‘siq qo‘yuvchi o‘yinchilarni himoyalaydi (3-rasm). Oldingi pog‘onali himoya tizimida esa to‘siq qo‘yuvchi o‘yinchilarni 6-zonadagi o‘yinchi himoya qiladi. Orqa pog‘onali tizimda esa bu vazifani 1 yoki 5-zonadagi o‘yinchilar bajaradi. Mazkur himoya tizimlari to‘siq qo‘yish harakatlari hamda raqib tomonidan amalga oshiriladigan hujum zarbalarining xususiyatlaridan kelib chiqib tanlanadi.



3-rasm

Musobaqa vaqtida himoya harakatlarini tashkil etishda, avvalo, raqib jamoasining hujumdagi harakatlari xususiyatlari asos qilib olinadi. Birinchi himoya varianti o‘yinchilarning o‘zaro hamkorlikdagi harakatlarini muvofiqlashtirish zarur bo‘lgan vaziyatlarda qo‘llaniladi. Ikkinchi variant raqib jamoasi tomonidan to‘siq ustidan tez-tez aldamchi zarbalar qo‘llanilganda samarali hisoblanadi. Uchinchi variant esa raqib jamoasi kuchli hujum zarbalarini amalga oshirgan holatlarda qo‘llaniladi.

Hujumkor zarba to‘plarni qabul qilish voleyboldagi himoya jarayonining eng murakkab o‘yin vaziyatlaridan biri hisoblanadi. Bu, avvalo, to‘pning uchish tezligi, yo‘nalishi hamda to‘siqdan qaytgan to‘pning harakat yo‘nalishini aniq belgilashning murakkabligi bilan ajralib turadi.

Har bir o‘yinchining maydondagi harakatlari tanlangan himoya tizimiga bevosita bog‘liq bo‘lib, hujum qiluvchi o‘yinchi yoki to‘siq qo‘yuvchi o‘yinchini himoyalash bir necha usulda amalga oshirilishi mumkin. Jumladan, ushbu vazifa hujum qilayotgan o‘yinchiga yaqin joylashgan bog‘lovchi o‘yinchi tomonidan, himoyachilar (6-, 5- yoki 1-zonadagi o‘yinchilar) tomonidan hamda hujum harakatlarida ishtirok etmayotgan, eng yaqin joylashgan hujumchi tomonidan bajarilishi mumkin (1^a-rasm). Himoya harakatlarini tashkil etishda samarali joylashuv variantlaridan biri 1^b-rasmda keltirilgan.

Tahlil va natijalar. Guruhli taktik harakatlar bir necha o‘yinchilarning muayyan o‘yin vaziyatlarida o‘zaro hamkorlikda bajaradigan harakatlarini o‘z ichiga oladi. Bunday vaziyatlarga o‘yinga kiritilgan to‘pni qabul qilish, hujum zarbalarini qabul qilish, to‘siq qo‘yish, shuningdek hujum zarbasini amalga oshiruvchi va to‘siq qo‘yuvchi o‘yinchilarni himoyalash kabi taktik harakatlar kiradi.

Guruhli taktik harakatlar tarkibiga asosan guruh bo‘lib to‘siq qo‘yishlar kirib, ko‘p vaziyatlarda ikki kishi bo‘lib to‘siq qo‘yish amalga oshiriladi, uch kishi bo‘lib to‘siq qo‘yishdan kamdan kam hollarda foydalaniladi. To‘siq qo‘yuvchi o‘yinchilar odatda o‘rta (3-zonada) va chekka (2 va 4 zonalada) to‘siq qo‘yadigano‘yinchilarga ajratiladi. Ikki kishilik to‘siq qo‘yilganda asosiy vazifani hujum yo‘nalishini to‘suvchi o‘yinchi bajaradi.

Masalan, raqib jamoasi hujumni diagonal yo‘nalishda amalga oshirgan vaziyatlarda to‘rning markaziy qismida kuchli to‘siq qo‘yuvchi o‘yinchining joylashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Uch kishilik to‘siq qo‘yishda (odatda to‘r markazida tashkil etiladi) o‘rta pozitsiyadagi o‘yinchiga chekka to‘siq qo‘-

yuvchilar yaqinlashib yordam beradi. Guruhli to‘siq qo‘yish samaradorligi, avvalo, to‘siqda ishtirok etayotgan o‘yinchilarning o‘zaro muvofiqlashtirilgan harakatlari va kelishilgan taktik faoliyatiga bog‘liq. Ikki kishilik to‘siq qo‘yishda eng muhim omillar quyidagilardan iborat:

a) baland to‘p uzatishdan keyin to‘g‘ri yo‘nalish bo‘yicha (4-zonadan, raqib maydonining 1-zonasiga) hujum uyushtirilganda, to‘siq qo‘ygan o‘yinchilarning qo‘llari bir-biriga yaqin bo‘lishi kerak;

b) 4-zonadan chapga tomon hujum qilinganda esa o‘rtadagi o‘yinchi to‘pdan chaproqqa joylashib, qo‘llarini to‘rga nisbatan burchak qilib turadi, chekkada to‘siq qo‘yadigan o‘yinchi esa to‘p qarshisiga turadi va qo‘llarini o‘rtada turgan o‘yinchining qo‘liga yaqinlashtiradi.

O‘yinga kiritilgan to‘pni qabul qilishda jarayonida ham guruh taktik harakatlarga jiddiy e’tibor qaratish lozim bo‘ladi. Chunki bunda, asosan, to‘rtta vazifa hal etiladi:

a) to‘pni qabul qilayotgan o‘yinchini himoya qilish;

b) to‘pni qabul qilish malakasi pastroq bo‘lgan o‘yinchini himoyalash;

d) ba’zi o‘yinchilarni to‘pni qabul qilismasligi uchun yopib qo‘yish;

e) to‘p qabul qilayotgan o‘yinchi bilan o‘zaro harakat qilish.

Yakka taktik harakatlarni amalga oshirish himoyada, yakka tartibda bajariladigan harakatlar tarkibiga kirib, bunday harakatlarga o‘yinga kiritilgan to‘pni qabul qilish, hujum zarbasini va to‘siqdan qaytgan to‘pni qabul qilish, to‘siq qo‘yish hamda to‘siq qo‘yilgandan so‘ng o‘z zonasini himoya qilishlar kiradi.

O‘yinga kiritilgan to‘pni qabul qilish jarayonida o‘yinchi o‘zining himoya zonasini (joylashuv koordinatalari bo‘yicha) hamda raqib tomonidan amalga oshirilayotgan to‘p kiritish xususiyatlarini hisobga olgan holda maydonda optimal joyni tanlashi kerak. Raqib o‘yinchining to‘pni o‘yinga qanday usulda kiritishini uning zarba berishdagi harakat amplitudasi orqali aniqlashi mumkin. Bunda o‘yinchining antitsipatsiya qobiliyati (oldindan sezish) va reaksiya tezligi juda muhim rol o‘ynaydi.

Musobaqalarda himoya o‘yinchisining o‘z joylashuv koordinatalari bo‘yicha (o‘z zonasida), biroz orqaroqda joylashishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki to‘pni qabul qilish jarayonida oldinga harakatlanish orqaga harakatlanishga nisbatan ancha qulay va samarali hisoblanadi.

Hujumkor zarba to‘plarini qabul qilish jarayonida o‘yinchining maydondagi joylashuvi bir qator omillarga bog‘liq holda belgilanadi. Jumladan, zarba yo‘nalishi, uzatilgan to‘pning traektoriyasi va yo‘nalishi, balandligi, uning to‘rdan uzoq yoki yaqinligi, hujum qilayotgan o‘yinchining individual xususiyatlari hamda jamoa tomonidan qabul qilingan o‘yin tizimi ushbu jarayonda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqori malakali voleybolchilarni tayyorlash jarayonini tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, sakrab kuchli, maqsadli hamda tebranma harakatli usulda kiritilgan to‘plarni qabul qilishda individual taktik mahoratni takomillashtirish jarayoniga yetarli darajada e’tibor qaratilmayapti. Holbuki, mazkur texnik-taktik element samarali hujum harakatlarini tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etib, musobaqa faoliyatida yuqori sport natijalariga erishishda muhim omillardan biri hisoblanadi.

O‘tkazilgan tahlillar natijasida yuqori malakali sportchilarning individual tayyorgarlik darajasini tavsiflovchi ayrim ko‘rsatkichlarning nisbatan past darajada ekanligi ham qayd etildi.

Mazkur muammoni hal etish maqsadida Urganch davlat universiteti voleybol jamoasining o‘quv-mashg‘ulot jarayonida ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi. Tadqiqotning asosiy vazifasi yuqori malakali voleybolchilarda *sakrab kuchli, maqsadli hamda tebranma harakatli (planiruyushiy)* usulda o‘yinga kiritilgan to‘plarni qabul qilishda individual taktik harakatlarni takomillashtirishga qaratilgan eksperimental texnologiyaning samaradorligini baholash hamda uni ilmiy jihatdan asoslab berishdan iborat bo‘ldi.

Himoya zonasida turganda, quyidagilarga e’tibor qaratish lozim:

a) to‘p uzatuvchi to‘pni to‘rdan uzoqroq uzatganda, hujumkor zarba to‘plarining himoya maydoning orqaroq joylashish kerak;

b) to‘p pastlatib uzatilganda va hujumchi tezligini oshirib yugurib kelsa, zarba egri yoki aldab tashlash bilan bajarilish ehtimoli bo‘ladi;

d) hujum, past bo‘yli to‘siq qo‘yuvchi tomon uyushtirilgan bo‘lsa, hujumkor zarba orqa zonalarga beriladi yoki to‘p to‘siqqa tegib qaytishi mumkin.

Hujum qilayotgan o‘yinchini himoyalash jarayonida unga nisbatan bo‘lgan masofa, raqib jamoasi tomonidan qo‘yilgan to‘siqning xususiyatlari hamda zarba uchun uzatilgan to‘pning holatini hisobga olish zarur. Agar to‘p to‘rga yaqin uzatilgan bo‘lsa va unga to‘siq qo‘yilgan holatda hujum zarbasi amalga oshirilsa, ko‘p hollarda to‘p vertikal yo‘nalishda qaytishi kuzatiladi.

Shu sababli hujum qilayotgan o‘yinchiga yaqin joylashgan himoyalovchi o‘yinchi unga nisbatan, taxminan, 1 metr masofada past holatda joylashib, to‘pni pastdan qabul qilishga tayyor turadi. Agar to‘p past uzatilgan yoki to‘rdan uzoqroq uzatilgan bo‘lsa, zarba berilgandan so‘ng to‘pning to‘siqdan yoki to‘rdan sapchib orqa zonalarga tushish ehtimoli yuqori bo‘ladi.

Xulosa va takliflar. To‘siq qo‘yishda maydonda to‘g‘ri joy tanlash va to‘siqni o‘z vaqtida qo‘yish muhim ahamiyatga ega. Zonada turgan joyda to‘siq qo‘yish usulida o‘yinchi asosan hujum zarbasi yo‘nalishini to‘sishga harakat qiladi. Harakatli to‘siq qo‘yishda esa zarbaning aniq yo‘nalishini berkitishga intiladi. To‘siq qo‘yuvchi o‘yinchining sakrash vaqti, ko‘pincha, zarba uchun uzatilgan to‘pning holati bilan belgilanadi. Yuqori va o‘rtacha balandlikda uzatilgan to‘plarda to‘siq qo‘yuvchi o‘yinchi hujumchidan keyin sakraydi, past va tezkor uzatilgan to‘plarda esa hujumchi bilan bir vaqtda sakraydi. Agar hujumchi havoda sakrab zarba beradigan bo‘lsa, to‘siq qo‘yuvchi o‘yinchi undan oldinroq sakrashga harakat qiladi. To‘siq qo‘yish jarayonida qo‘llar to‘r ustidan yakuniy fazada o‘tkaziladi. Qo‘llar, ayniqsa, kaftlarning joylashuvi zarba yo‘nalishiga bevosita bog‘liq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Клещев Ю.Н. Волейбол. Подготовка команды к соревнованиям [учеб. пособие]. М., “СпортАкадем Пресс”, 2002, 189 с.

(2). Пулатов А.А. Современный волейбол: новые тенденции – новый подход к обучению. “Фан–спортга”, Ташкент, 2004, № 1, с. 13–16.

(3). Айрапетьянц Л.Р., Машарипов Ф.Т. Динамика показателей физической и спортивно-технической подготовленности студенток волейболисток. “Фан–спортга”, Ташкент, 2007, № 1, с. 25–29.

(4). Железняк Ю.Д. Основы научно-методической деятельности в физической культуре и спорте. Учебник для студентов учреждений высш.проф.образования, обучающихся по направлению «Пед.образования» профил. «Физкультура», М., “Академия”, 2013, 288 с.

(5). Masharipov F.T. Voleybol va uni orgatishning pedagogik asoslari. Ro‘zmetov R.T., Ro‘zmetov A.T. O‘quv-uslubiy qo‘llanma, Urganch, 2018, 80-bet.

Tojibayeva Nazokatxon Kobiljonovna (Oila va gender ilmiy tadqiqot instituti dotsenti, p.f.f.d. (PhD); @NKobiljonovna Docent)

PERFORMATIV YONDASHUVNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada performativ yondashuv asosida oila va xotin-qizlar tizimi xodimlarining faoliyatini kollaborativ kompetensiyalarni rivojlantirishning samarali mexanizmlari ilmiy tahlil qilingan. Shuningdek, performativ yondashuvning nafaqat kasbiy mahoratni, balki ijtimoiy-hissiy aql, empatiya va tashabbuskorlikni ham rivojlantirishga xizmat qilishining nazariy asoslari ham ochib berilgan.*

Kalit so‘zlari*: performativ yondashuv, kollaborativ kompetensiya, psixolog, pedagog, hamkor, diagnostik bosqich, amaliy bosqich, refleksiv bosqich, motivatsion-fasilitativ funksiya, kommunikativ funksiya, koordinatsion funksiya va koordinatsion funksiya.*

Тожибаева Назокатхан Кобилжоновна (доцент НИИ семьи и гендера, к.м.н.; @NKobiljonovna Docent)

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПЕРФОРМАТИВНОГО ПОДХОДА

Аннотация. *В данной статье на основе перформативного подхода научно проанализированы эффективные механизмы развития совместных компетенций сотрудников семейно-женской системы. Также раскрыты теоретические основы исполнительского подхода, который служит развитию не только профессиональных навыков, но и социально-эмоционального интеллекта, эмпатии и инициативы.*

Ключевые слова*: перформативный подход, совместная компетентность, психолог, педагог, партнер, диагностический этап, практический этап, рефлексивный этап, мотивационно-фасилитационная функция, коммуникативная функция, координационная функция и координационная функция.*

Tojibayeva Nazokatkhan Kobiljonovna (associate professor of the Research Institute of Family and Gender, PhD.; @N_Kobiljonovna_Docent)

THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE PERFORMATIVE APPROACH

Annotation. *In this article, based on the performative approach, the effective mechanisms of the development of collaborative competencies of family and women's system employees have been scientifically analyzed. Also, the theoretical basis of the performance approach, which serves to develop not only professional skills, but also socio-emotional intelligence, empathy and initiative, is revealed.*

Key words*: performative approach, collaborative competence, psychologist, pedagogue, partner, diagnostic stage, practical stage, reflexive stage, motivational-facilitative function, communicative function, coordination function.*

Kirish. Performativ yondashuv insonlar orasidagi munosabatlarni shakllantirishda va munosabatlarning saviyasini ko‘tarishda katta ahamiyatga ega. Ushbu yondashuv adabiyotda va tilshunoslikda keng ilmiy tadqiq qilinsa-da, amaliyot bilan bog‘liq ijtimoiy sohalarda ham keng qo‘llaniladi. Ijtimoiy soha nuqta-